

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI DARAJALAR BERUVCHI
DSc03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

INOGAMOVA FAZILAT MANSUROVNA

**FRANSUZCHA-O'ZBEKCHA FRAZEOLOGIK IBORALARNING
ILLYUSTRATIV LUG'ATINI TUZISH TAMOYILLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Contents of dissertation abstract of philosophy (PhD) on philological sciences

Inogamova Fazilat Mansurovna

Fransuzcha-o‘zbekcha frazeologik iboralarning illyustrativ lug‘atini tuzish
tamoyillari.....3

Inogamova Fazilat Mansurovna

Принципы создания иллюстративного словаря французско-узбекских
фразеологических выражений25

Inogamova Fazilat Mansurovna

Principles of creating an illustrative dictionary of French-Uzbek phraseological
expressions.....51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works55

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI DARAJALAR BERUVCHI
DSc03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

INOGAMOVA FAZILAT MANSUROVNA

**FRANSUZCHA-O'ZBEKCHA FRAZEOLOGIK IBORALARNING
ILLYUSTRATIV LUG'ATINI TUZISH TAMOYILLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil1848 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda ((www.ziyonet o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.nuu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lif portalida.uz joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shirinova Raima Xakimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Djumabayeva Jamila Sharipovna
filologiya fanlari doktori, professor

Mamatkasimova Vasila Akramjanovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "9" iyun soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Forobiy ko'chasi, 400. Tel.: (+99871) 246-08-62, faks: (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz O'zbekiston Milliy universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti (3-qavat, 3-11- xona).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (88 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "27" may kuni tarqatildi.
(2025-yil "27" may dagi 28 raqamli reyestr bayonnomasi).



I.A.Siddiqova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

M.G'.Rabiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fil.fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.E.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol. f. d. professor

KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon lug‘atshunosligida oxirgi yillarda frazeografiyani alohida fan sifatida o‘rganish, unga aloqador frazeodidaktika qonuniyatları va ularning nazariy masalalarining innovatsion yechimlarini hal qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, illyustrativ frazeografiyaning umumiy qonuniyatlarini aniqlash, tarixiy shakllanishi va taraqqiyotini o‘rganish, zamonaviy lug‘atlar yangi avlodining tipologik tasnifini tahlil qilish, sohada mavjud asosiy tamoyillarni umumlashtirish hamda ularni qiyosiy-tipologik aspekte olib berish masalalari tobora dolzarblashmoqda.

Dunyo lug‘atshunosligida turli tillar terminologik tizimida chog‘ishtirilayotgan tillarning leksik-semantik, funksional-semantik xususiyatlarini atroflicha o‘rganish, leksikografiya yo‘nalishida tasniflash va lingvistik xususiyatlarini lingvomadaniy aspekte tadqiq qilishga oid bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu nuqtayi nazardan o‘zbek leksikografiyasi va frazeografiyasi mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni yanada takomillashtirish, frazeologiyaning barcha sohalar kesishuvida o‘rganilishi zarur ekanligi borasida takliflar ishlab chiqish, illyustrativ lug‘atlar, ikki va ko‘p tilli vizual lug‘atlar, elektron lug‘atlar yaratishning zamonaviy prinsiplarini ishlab chiqishga doir tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda zamon talablariga javob beradigan turli xil lug‘atlar hamda zamonaviy elektron lug‘atlar hamda o‘zbek tili korpuslari tizimini yaratish borasida yuqori malakaga ega bo‘lgan chet tillarni mukammal biladigan kadrlarga ehtiyoj oshib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, “O‘zbekistonning ilm-fan, intellektual salohiyat, zamonaviy kadrlar, jahon miqyosida yuqori texnologiyalar sohasida raqobatbardosh bo‘lishi zarurati”¹ni keltirib chiqaradi. Shu nuqtayi nazardan frazeologik iboralarning leksikografik muammolarini ilmiy va nazariy masalalarini o‘rganish, mazkur sohada xorijiy frazeograflar tomonidan yaratilgan tamoyillarni tahlil qilish va ular asosida fransuzcha-o‘zbekcha frazeologik iboralarning illyustrativ lug‘atlarni yaratish masalasi mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur tadqiqot doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5487-som, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-som, 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-som qarori, shuningdek, faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi ilm-fan va texnologiyasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirildi: I. “Axborot jamiyatni va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish bo‘yicha innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом этириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 12 б.

hamda ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorij va o‘zbek olimlari tomonidan frazeologik birliklarning etimologiyasi, shakllanishi, leksik, grammatic va leksik-semantik o‘zgartirishlar asosidagi transformatsiyasi kabi masalalari, shuningdek, milliy hamda o‘ziga xos jihatlarini ikki va undan ortiq, turli tizimli tillar kesimida chog‘ishtirib o‘rganishga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar olib borilgan².

Frazeografiya sohasida o‘zbek lug‘atshunoslari XX asrning 50-90 yillarida frazemalar lug‘ati yaratishning nazariy va amaliy masalalari bilan shug‘ullandilar³. Ayniqsa, Sh.Rahmatullayev, H.Berdiyorov, R.Rasulov, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovlar, E.Umarov, M.Abdurahimov, M.Sadiqova, M.Umarxo‘jayev,

² Кунин А.В. Английская фразеология: Теоретический курс. – М.: Высш. шк., 1970.; Кунин А.В. Основные понятия английской фразеологии как лингвистической дисциплины и создание англо-русского фразеологического словаря: Дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 1964.; Телия В.Н. Фразеология в контексте культуры. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 336 с.; Телия В.Н. Фразеология в контексте культуры. – М.: Языки рус. культуры, 1999. – 336 с.; Виноградов В.В. Основные типы фразеологических единиц в русском языке // В кн.: Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове/ Под ред. Г.А. Золотовой. Изд. 4-е. – М.: Русский язык, 2001. – С.27-33.; – 720 с.; Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. – М.: Высшая школа, 1987. – С. 6-8.; Молотков А.И. Основы фразеологии русского языка. – Л.: Наука, 1977. – 284 с.; Ожегов С.И. О структуре фразеологии // В кн.: Ожегов С.И. Лексикология. Лексикография. Культура речи. – М.: Высшая школа, 1974. – 352 с.; Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – М.: Либроком, 2010. – 272 с.; Маматов А.Э. Очерки по французской фразеологической стилистике. – Ташкент: Уқитувчи, 1989.; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари: Филол. фан. докт. дисс. ... автореф. – Т., 2000.; Маматов А.Э. Очерки по французской фразеологической стилистике. – Ташкент: Уқитувчи, 1995.; Маматов А.Э. Ўзбек тили фраземаларининг шаклланиш масалалари: Фил. фан. докт. дис. ... автореф. – Тошкент, 1999. – 56 б.; Умарходжаев М.И. Основы фразеографии: Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Москва, 1981.; Носиров А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий маданий хусусиятлари: Филол.фан. докт. (DSc) дисс. ... автореф. – Т. 2016. – 32 б.; Имяминова Ш.С. Немис тили фразеологияси. Ўқув кўлланма. – Т.: Мумтоз сўз, 2011. – 80 б.

³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик лугати, – Тошкент: Қомуслар Бош таҳрир.,1992.; Калонтаров Я.И. Таджикские пословицы и поговорки в сравнении с узбекскими. – Душанбе, 1969. – 434 б.; Шанский Н.М., Быстрова Е.А. Учебный фразеологический словарь русского языка (учебное пособие русскому языку для учащихся национальных школ). – Москва, 1979. – С. 264.; Содикова М. Русча-ўзбекча фразеологик лугат. – Тошкент: Фан,1972. – Б. 192.; Умаров Э.А. Фразеологический словарь “Хазойин-улмаоний” Алишера Навои. – Тошкент: Фан, 1971. – 140 с.; Абдурахимов М. Ўзбекча-русча афоризмлар лугати. – Тошкент: Фан, 1976. – 216 с.; Абдурахимов М. Қисқача ўзбекча-русча фразеологик лугат. – Т: Фан,1980. – Б.184.; Жуков В.П. Школьный фразеологический словарь русского языка. – Москва, 1980. – С. 271.; Шанский Н.М., Быстрова Е.А., Алиқулов Т. Рус тилидаги 700 фразеологик ибора. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 109 с.; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. Тўрт томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1983. – Б. 323.; Бердиёров X., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 288.; Быстрова Е.А, Окунева А.П, Шанский Н.М. Учебный фразеологический словарь русского языка (пособие для учащихся национальных школ). – Л.: Просвещение,1984. – 275 с.; Жуков В.П. Школьный фразеологический словарь русского языка. – М.: Просвещение, 1980. – С 44.; Абдурахимов М. Ўзбекча-русча афоризмлар лугати. Иккинчи нашри. – Т: Фан, 1986. – Б. 43.; Садыкова М. Краткий узбекско-русский фразеологический словарь. – Ташкент: Фан, 1989. – 336 с.; Калонтаров Я.И. Мудрость трех народов (таджикские, узбекские, русские пословицы, поговорки и афоризмы в аналогии). – Душанбе,1989 – 438 с.; Содикова М. Қисқача ўзбекча-русча мақол-маталлар лугати. – Тошкент: Фан,1993. – Б.88.; Махмуд Саттор. Ўзбекнинг гали қизиқ. – Тошкент: Azian book house, 1994. – 148 с.; Содикова М. Қисқача русча-ўзбекча барқарор иборалар лугати. – Тошкент: Фан, 1994. – Б. 96.; Умархўжаев М.И., Назаров К.Н. Немисча-русча-ўзбекча фразеологик лугат. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 147.; Садыкова М. Краткий русско-узбекский словарь устойчивых выражений. – Ташкент: Фан, 1994. – С.96.; Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик лугати. – Тошкент: Фан, 2006.– Б.134.; Мирзаев Т., Эшонқул Ж. “Алпомиш” достонининг изоҳли лугати. – Тошкент: Элмус Прес медиа, 2007. – Б.164.; Йўлдошев Б., Ўринбоева Д. Ўзбек халқ достонларининг частотали изоҳли фразеологик лугати. – Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. – Б.100.; Менглиев Б., Бойматова О., Худойбердиева М. Ўзбек тили иборалари ўқув лугати. – Тошкент, 2007. – С. 72.; Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари лугати. – Тошкент, 2011. – 468 б.

B.Mengliyev⁴lar tomonidan yaratilgan lug‘atlarda frazemalarni izohlash, frazemalar variantlari, sinonimlari, o‘xhash formalari va frazeologik iboralarning mazmunini ochib berishga xizmat qiladigan badiiy hamda publitsistik asarlardan keltirilgan misollar bilan boyitilganligi bilan ajralib turadi. Xorij olimlari lug‘atlarning yangi avlodlari, ya’ni vizual va audiovizual lug‘atlar, illyustrativ lug‘atlar yaratish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirdilar⁵. Jahon frazeodidaktika maktablarida frazeologik iboralarning illyustrativ lug‘atlar yordamida chet tillarni o‘rgatish, talabalarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy dunyoqarashlarini rivojlantirishga yo‘naltirigan frazeodidaktikani o‘qitish bo‘yicha metodika shakllantirilgan. Natijada, chet tillarni o‘qitish orqali talabaning tili o‘rganilayotgan xalqning madaniyati va tarixidan xabardor qilishga erishilmoqda. Frazeologik iboralarning illyustrativ lug‘atini yaratish borasida ishlab chiqilgan tamoyillarga asoslanib aytish mumkinki, fransuzcha-o‘zbekcha frazeologik iboralarning illyustrativ lug‘atini yaratish borasida alohida monografik tadqiqot yaratilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalarining “Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari” muammosi bo‘yicha amalga oshirilayotgan istiqbolli ilmiy tadqiqot ishlari rejasi “Turli tizimdagi tillarning tipologik va chog‘ishtirma xususiyatlar” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jahon frazeografiyasi tajribasi asosida fransuzcha-o‘zbekcha frazeologik iboralarning illyustrativ lug‘atini tuzish tamoyillarini ishlab chiqish va frazeologik iboralarning fransuzcha-o‘zbekcha parallel korpusini yaratish bo‘yicha metodik tavsiya ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

jahon frazeografiya tadqiqotlari asosida “illyustratsiya” fenomeni va illyustrativ lug‘atlarning semiologik jihatlarini ochib berish;

jahon va o‘zbek frazeografiyasida mavjud ikki tilli frazeologik iboralarning izohli hamda illyustrativ lug‘atini qiyosiy tahlil qilish va mavjud tamoyillarni

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача фразеологик лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1964. – 380 б.; Бердиёров X., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремеологик лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.; Абдураҳимов М. Ўзбекча-русча афоризмлар лугати. Иккинчи нашри.– Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – С. 43.; Абдураҳимов М. Ўзбекча-русча афоризмлар лугати. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 126.; Шомақсұдов Ш. Шорахмедов Ш. Маңнолар мазҳани. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2001. – 448 б.; Умаров Э.А. Фразеологический словарь “Хазойин-ул-маоний” Алишера Навои. – Тошкент: Фан, 1971. – С. 140.; Абдураҳимов М. Ўзбекча-русча афоризмлар лугати. Иккинчи нашри. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 43.; Абдураҳимов М. Ўзбекча-русча афоризмлар лугати. – Тошкент: Фан, 1986. – С. 26.; Садыкова М. Қраткий узбекско-русский фразеологический словарь. – Т.: Фан, 1989. – 336 с.; Умархўжаев М. Немисча русча ўзбекча фразеологик лугат. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 160 б.; Менглиев Б., Бойматова О., Худойбердиева М. Ўзбек тили иборалар ўқув лугати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 72 б.

⁵ Германова О.А. Иллюстрированные и иллюстративные словари: создание, развитие и современное состояние: Автoref. дисс. ... канд. филол. наук. – Иваново, 2011. – С. 28.; Табанакова В.Д. Идеографическое описание научной терминологии в специальных словарях: Дисс. ... докт. филол. наук. Тюмень, 2001. – 288 с.; Mitton J. Cambridge illustrated dictionary of astronomy. – Cambridge Univ. Press, 2007. – 402 p.; Stein G. Illustrations in dictionaries // Intern. Journal of Lexicography. – 1991. – Vol. 4, No. 2. – P. 99 -127.; Zgusta. L. Ornamental pictures in Dictionaries // Lexicographers and their works. – Exeter: Exeter Univ. Pres, 1989. – P. 215 - 223.; Дмитриева М.В. Использование иллюстративного материала школьного учебника биологии. – Абакан, 2006. – С. 54.; Ефимов А.Н. О некоторых недостатках иллюстративного материала в методической литературе по химии // Химия в школе. – М., 1957. – № 6. – С. 69-72.

umumlashtirish;

illyustrativ tarjima lug‘atlaridagi frazeologik iboralar izohi va ma’no-mazmunida aks etgan axborotlarning yetakchi funksiyalarini aniqlash;

fransuz tilidagi fe’llar yordamida yasalgan frazeologik iboralarni guruhlash va ularning ma’nosiga muvofiq tasvirlarini yaratish hamda fransuzcha-o‘zbekcha frazeologik iboralarning parallel korpusini shakllantirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida fransuz va o‘zbek tillari ikki hamda ko‘p tilli izohli lug‘atlar, illyustrativ lug‘atlar hamda elektron-vizual lug‘atlarida aks etgan illyustrativ frazeologik iboralar tanlangan.

Tadqiqotning premetini fransuz va o‘zbek tillaridagi o‘zaro muqobil frazeologik iboralar izohi hamda ularning tasviriy ifodasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, lug‘aviy konstekstual tahlil va tavsiflash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

“illyustratsiya” hodisasi illyustrativ lug‘atlarining asosiy semiologik xususiyati bo‘lib, u narsa yoki hodisalarni ifodalovchi frazeologik iboralarning ma’nosini tushuntirish, shuningdek, so‘z bilan ifodalash qiyin bo‘lgan tushunchalarni vizuallashtirish vositasi ekanligi tavsiflash, kontekstual metod orqali aniqlangan;

ikki tilli frazeologik iboralarning illyustrativ lug‘atlarida lug‘aviy-mavzuiy, lug‘aviy-ma’noviy, lug‘aviy-tasviriy tamoyillar ustivorligi asoslangan;

ikki tilli frazeologik iboralarning illyustrativ lug‘atlarida frazeologik iboralarni izohlashda ma’no konvensialligi, semiologik axborotlar va badiiy-tasviriy funksiyalarning yetakchiligi dalillangan;

fransuz tilidagi “*avoir*”, “*être*”, “*faire*”, “*prendre*”, “*mettre*” fe’llari ishtirokida tuzilgan frazeologik iboralar va ularning vizual talqinlari tizimlashtirilgan hamda fransuz tilidagi frazeologizmlarning o‘zbek tiliga tarjimasi asosida parallel korpusi bazasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

frazeografiyaga oid materiallar va ilmiy xulosalar o‘zbek lug‘atchiligi uchun muhim ilmiy-nazariy asos bo‘lib, ularning ilmiy tajribasi boyitilishi isbotlangan;

tadqiqot olib borish natijasida olingan materiallar va ilmiy xulosalar leksikologiya, leksikografiya, frazeografiya hamda frazeodidaktika yo‘nalishida tadqiqot olib boradigan yosh tadqiqotchilarning mazkur yo‘nalishdagi bilim va ko‘nikmalarini oshirishga manba bo‘lib xizmat qilishi asoslangan;

ilmiy natijalar qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik (fransuz hamda o‘zbek tillari buyicha), fransuz va o‘zbek tillari bo‘yicha qiyosiy-tipologik tilshunoslik, tarjimashunoslik fanlari hamda frazeologik iboralarning ikki va ko‘p tilli lug‘atlarining yaratilishida qo‘llanilishi mumkinligi dalillangan;

talabalarning fransuz tilidagi frazeologik iboralarning kontekstual ma’nosini anglash va illyustrativ lug‘atlardan foydalanish malakasini shakllantirishga yo‘naltirilgan “Fransuzcha-o‘zbekcha frazeologik iboralarning illyustrativ lug‘ati” yaratilgan;

frazeologik iboralarning illyustrativ lug‘ati hamda o‘zbek tilidagi tarjima lug‘atlarining elektron variantini yaratish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mavzu bo'yicha respublika va xalqaro ilmiy metodik hamda ilmiy amaliy anjuman to'plamlarida, OAK ro'yxatiga kirgan maxsus jurnallarda, xorijiy nashrlarda ilmiy maqola va tezislar e'lon qilingan, tadqiqot mobaynida olingen nazariy xulosalar amaliyotga tadbiq qilingan, tegishli idoralar tomonidan tasdiqlangan tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy mohiyati shundaki, unda fransuz tilidagi frazeologik iboralarning struktural kompozitsion, semantik va funksional xususiyatlari illyustratsiya orqali ifodalanishi bo'yicha lug'at tahlili hamda lug'at tuzish tamoyili ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingen natijalar va nazariy xulosalardan fransuz tilidagi hamda boshqa tillardagi illyustrativ lug'atlarni takomillashtirish, bakalavr ta'lim yo'nalishlarida frazeologiya, frazeografiya, frazeodidaktika kabi o'quv kurslarini o'qitish jarayonini chuqurlashtirish hamda lug'at tuzish tamoyillarining amaliy jihatlaridan foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Frazeologik iboralarning illyustrativ lug'atini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish bo'yicha olingen natijalar asosida:

ikki tilli frazeologik iboralarning illyustrativ lug'atlarida lug'aviy-mavzuiy, lug'aviy-ma'noviy, lug'aviy-tasviriy tamoyillar ustivorligi asoslanganligi to'g'risidagi xulosa va natijalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanalni DM "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muxarriyati tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Ta'limda islohotlar" radioeshittirishlarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanalni DMning 2023-yil 13-dekabrdagi O'z/R-04-25-1483-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashuvi haqidagi ma'lumotlar radiokanal ijodiy jamoasining mavzu doirasida chuqurroq mulohaza yuritishi uchun zamin yaratilgan;

illyustrativ tarjima lug'atlaridagi frazeologik iboralarni izohlashda ma'no konvensialligi, semiologik axborotlar va badiiy-tasviriy funksiyalarning yetakchiligi dalillanganligi to'g'risidagi nazariy xulosalardan Toshkentdagi Fransuz Alyansida o'tkazilgan B1 va B2 darajali tinglovchilar mashg'ulotlarida hamda "Atelier Conversation" treninglarida qo'llanilgan (Fransuz Alyansining 2023-yil 22-dekabrdagi ma'lumotnomasi). Natijada materiallarning mashg'ulotlarda foydalanish jarayonida frazeologik birliklarning semantikasi, nutqda foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga hamda tinglovchilarning lisoniy va madaniy kompetentligini oshirishga erishilgan;

fransuz tilidagi "avoir", "être", "faire", "prendre" va "mettre" fe'llari yordamida yasalgan frazeologik iboralar hamda ularning illyustratsiyalari to'planib, fransuz tilidagi frazeologizmlarning o'zbek tiliga tarjimasi asosida frazeologik iboralarning parallel korpusi bazasi ishlab chiqilganligiga oid xulosa va natijalardan "Ibrat farzandlari" tomonidan tayyorlangan fransuz tili darslarida hamda tashkilot tomonidan ishlab chiqilayotgan "Fransuz tili" kitobida foydalanildi. Natijada darslikda fransuz va o'zbek tillarida tavsiya etilgan matnlar hamda mashqlarda qo'llanilgan "avoir", "être", "faire", "prendre" va "mettre" fe'llari yordamida yasalgan frazeologizmlar muloqot

jarayonida talabalarga chet tilini o'rgatishda muhim ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 7 ta respublika imiy amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertaiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, ulardan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning (ilovalardan tashqari) umumiy hajmi 135 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqoning dolzarbliji va zarurati asoslab berilgan, maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy va amaliy ahamiyati belgilangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi qayd etilgan, yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalar asosida tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, aprobatsiya qilish, dissertatsiya mavzusi, dissertatsiya tuzilishi va hajmi, e'lon qilingan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Ishning birinchi bobi "**Frazeografiya sohasidagi tadqiqotlarning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan bo'lib mazkur bobning birinchi faslida frazeografiya sohasida xorij va o'zbek olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o'r ganilgan hamda ular tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy konsepsiyalarga to'xtalib o'tilgan. Bugungi kunda frazeografiya leksikografiyaning frazeologik lug'atlari amaliyoti va nazariyasi bilan shug'ullanadigan mustaqil bo'limi sifatida tadqiq etilmoqda. Frazeografiyaning nazariy va amaliy masalalari ustida A.V.Kunin, N.F.Alefierenko, Y.A.Gvozdarev, V.P.Jukov, V.I.Zimin, A.I.Molotkov, A.M.Melerovich, V.N.Teliya⁶ kabi xorij olimlari tadqiqotlar olib borganlar. A.V.Kuninning frazeologiya yo'nalishini, xususan, ingliz frazeografiyasi nazariyasini rivojlantirishga qo'shgan bebahohissasini alohida ta'kidlash lozim. Shuningdek, M.Adam, R.Kollins, R.Makin, A.Koi, M.Boatner, M.Artur, B.Atkins⁷ kabi olimlar ham frazeografiya sohasida mavjud lisoniy masalalar

⁶ Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1972. – С. 289.; Алефиренко, Зимин В.И., Василенко А.П., Федуленкова Т.Н., Добровольский Д.О., Мелерович А.М., Мокиенко В.М. Современная фразеология: тенденции и инновации. – Санкт-Петербург, Брянск: Новый проект, 2016. – 200 с.; Гвоздарев Ю.А. Рассказы о русской фразеологии. – М.: Просвещение, 1988. – 190 с.; Жуков В.П. Школьный фразеологический словарь русского языка. – М.: Просвещение, 1980. – 450 с.; Молотков А.И. Фразеологический словарь русского языка. – М., 2016. – С. 200.; Мелерович А.М. Современная русская фразеология (семантика-структура-текст). – Кострома: КГУ, 2011. – 455 с.; Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Языки русской культуры, 1996. – С. 156.

⁷ Makkai A. Theoretical Considerations // Idiom Structure in English. – The Hague, Paris: Mouton, 1972. – P. 23-155.; Collins P.L. CDI Collins Cobuild Dictionary of Idioms. – Birmingham, 1998. – 493 p.; Making R. Brandom It Explicit: Reasoning, Representing, And Discursive Commitment. – Harvard University Press, 1994. – 741 p.; Cowie A.P. Phraseological Dictionaries: – Oxford: Clarendon Press, 1998. – P. 209-228.; Boatner A. Idiom Structure in 10

ustida ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. O‘zbek olimlaridan M.I.Umarxo‘jayev o‘zining “Frazeografiya asoslari” nomli kitobida frazeografiyaning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, turli tillar, ya’ni nemis, ingliz, rus, fransuz, rumin, ispan, o‘zbek, qirg‘iz, tatar va bir qator boshqa til materiallari asosida chop etilgan 300 dan ortiq bir, ikki hamda ko‘p tilli frazeologik lug‘atlar, maqol va matallar, hikmatli so‘zlar to‘plamlarini tahlil qilib chiqqan⁸ va olim tomonidan jahon tilshunosligida frazeografiyaning shakllanishi hamda taraqqiyoti uch katta davrga bo‘lib o‘rganilgan:

- a) Eng qadimgi zamonlardan XIX asrgacha bo‘lgan davr;
- b) XIX asr va XX asrning birinchi yarmini o‘z ichiga olgan davr;
- v) XX asrning 50-yillaridan hozirgi kunlargacha bo‘lgan davr .

Frazeologik iboralarning milliy-madaniy xususiyatlari to‘g‘risida A.E.Mamatov “Frazeologik birliklar xalqning psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarini namoyon etgan ko‘p qirrali hamda ko‘p qatlamlı mental tuzilmadir. Ularning mohiyatida ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, tarixiy ildizlariga ega bo‘lgan xalqning hayotiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turadi. An’anaviy tilshunoslikda til birliklari, jumladan, frazeologik birliklar, asosan, struktural xususiyatlari asosida o‘rganildi”⁹, deya frazeologik birliklarning o‘ziga xos belgilarini ochib bergan. Darhaqiqat, frazeologik birliklarni o‘rganish va o‘rgatishda, albatta, ularda, eng avvalo, frazeologik olamning milliy manzarasi masalasini nazardan chetda qoldirmaslik zarur. O‘zbek tilidagi amaliy frazeografik manbalarga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu jarayon juda qadimiy va boy tarixga ega. B.Yo‘ldoshevning fikricha, frazeografik lug‘atlar tarkibida frazemalar kam bo‘lgan va asosan mazkur lug‘atlarda maqol, matal, aforizmlarni to‘plash va sistemalashtirishga e’tibor qaratilgan¹⁰. Lug‘atlarga frazemalarni kiritish va izohlash tamoyillari belgilash mazkur sohani rivojlantirishda muhim omillardan biri hisoblangan. B.Yo‘ldoshev o‘zbek frazeografiysi taraqqiyotining bu davrini paremiografik davr deb aytgan¹¹. Ushbu davrda o‘zbek tilshunoslari turli xil lug‘atlarni yaratib, ko‘plab frazemalarni lug‘atlarga kiritishga erishdilar¹². G.Bayramov, Z.Uraksin, S.Nauruzbayeva kabi olimlar frazeologik polisemiya va iboralarning lug‘atlarda izohlanish tamoyillarni o‘rganganlar. Shuningdek, olimlar lug‘at tuzish tamoyillariga ko‘ra, har bir frazeologik lug‘atda frazeologik polisemiya hodisasining aks etishi lozimligini alohida ta’kidlab o‘tganlar¹³. Jahon va o‘zbek frazeografiyasida soha olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar hamda ushbu sohada erishilgan

English. – The Hague, Paris: Mouton, 1972. – P. 23-155.; Arthur M.C. The Oxford companion to the English language. – New York: Oxford, 1992.; Atkins B. Le Robert et Collins. Dictionnaire Français-Anglais. – Paris, 1994. – P.156.

⁸ Умарходжаев М.И. Основы фразеографии: Автореф. док. дисс. ... филол. наук. – Т., 1979. – 60 с.

⁹ Маматов А., Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг семантик-прагматик тадқики. – Т.: Наврӯз, 2019. – Б. 3-4.

¹⁰ Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. – Самарқанд, 2013. – Б. 28.

¹¹ Ўзбек паремиологияси тарихи ҳақида қаранг: Бердиёров X., Расулов, Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясидан материаллар. 1-қисм. – Самарқанд, 1976. – Б. 417; Паремиология Узбекистана. Выпуск 1. – Самарқанд, 1978.; Паремиология Узбекистана. Выпуск II. – Самарқанд, 1980.; Паремиология Узбекистана. Выпуск III. – Самарқанд, 1981.

¹² Акобиров С.Ф., Маъруфов З.М. Ўзбекча-русча лугат. – Т: Фан, 1959. – 840 б.

¹³ Байрамов Г.А. О составлении фразеологического словаря азербайджанского языка // Вопросы фразеологии. – Т.: Фан, 1965. – С. 19-22.; Наурузбаева С.Т. Фразеологические единицы в каракалпакско-русском словаре. – Т.: Фан, 1972. – С. 52-54.

yutuqlarni e'tirof etgan holda aytish mumkinki, mahalliy va xorij lug'atshunoslar tomonidan har yili salmoqli miqdordagi o'quv lug'atlari yaratilmoqda. Biroq mazkur sohada hanuz hal qilinadigan ishlar yechimini kutadigan masalalar ham mavjud. Tilimizning, xususan, umumiy ko'p jildlik izohli frazeologik lug'atini yaratish ustida olib borilayotgan ishlarni davom ettirish maqsadida, ikki yoki uch tilli qiyosiy va chog'ishtirma frazeografik lug'atlar yaratish zarur.

“O'zbek frazeografiyasida frazeologik lug'atlar yaratish tajribasi” deb nomlangan ikkinchi paragrafda o'zbek frazeografiyasida frazeologik lug'atlarning yangi avlodini ishlab chiqish zarurati borasida fikr yuritiladi. Ma'lumki, tilshunos olim H.Berdiyorov ilk bor Samarqandda o'tkazilgan 1-xalqaro ilmiy konferensiyada (1959-yilda) o'zbek tilida frazeologik lug'atlar tuzish masalasiga jiddiy e'tibor berish lozimlini ta'kidlaydi. V.Qodirov ruscha-o'zbekcha lug'atlarda frazemalar talqini masalasiga bag'ishlangan tadqiqotida frazemalar lug'atlarini tahlil qilar ekan, ular qanday leksikografik tamoyillarga asoslanish lozimligini olib berdi¹⁴. Barcha olimlar tadqiqotida ko'tarilgan ilmiy munozaralar umumlashtirilganda ularda, asosan, frazeologik birliklarni lug'atlarda izohlash, ularning bosh, yetakchi ma'nolarini aniqlash, shuningdek, ma'nolarning o'zaro bog'lanishi, mazmunning misollar orqali olib berilishi masalalari yetakchilik qilgan.

O'zbek frazeografiyasida ham maxsus frazeologik lug'atlar tuzish sohasida muayyan tajriba to'planib lug'atlarning hajmi, FBlarni izohlanishi, lug'at tuzish borasida tamoyillar yaratildi. O'zbek olimlari leksikografiya va frazeografiya sohasida ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida nazariya bilan amaliyotni chambarchas bog'lash, amaliyotga tatbiq qilish borasida ham ijobjiy ishlarni boshlaganlarini, albatta, ko'rsatib o'tish lozim. Xuddi shunday ishlardan biri M.Abdurahimov tomonidan amalga oshirilgan o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'at tuzish tamoyillarini nazariy jihatlariga bag'ishlangan tadqiqot ishidir. Tadqiqotchi dissertatsiyaning amaliy natijasi sifatida “O'zbekcha-ruscha aforizmlar lug'ati”¹⁵ va “Qisqacha o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'at”¹⁶larni yaratdi. Jumladan, olima M.Sodiqova “Qisqacha o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'at”¹⁷ va “Qisqacha o'zbekcha-ruscha maqol-matallar lug'ati”¹⁸ni nashr ettirdi. “Qisqacha o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'at”iga o'zbek tilidagi jami besh mingga yaqin frazeologik birliklarni kiritgan bo'lib, unda adabiy tilga oid iboralardan tashqari, oddiy so'zlashuv iboralari, diniy xarakterdagi iboralar, etnografik va dialektal iboralarni ham guruhlab chiqqan. Frazeologik lug'atlarning izohli, tarjima lug'atlaridan tashqari o'quv lug'atlari ham nashr etilgan bo'lib, xususan, o'zbek leksikografiyasida “O'quv frazeologik lug'at” termini birinchi marta atoqli tilshunos olim, frazeolog B.Yo'ldoshevning “O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi va rivojlanishi” monografiyasida qo'llanilgan. Muallif frazeologik birliklarni tasniflash bilan birgalikda “rus tilida bunday o'quv frazeologik lug'atlarning bir qancha

¹⁴ Кадыров В.Х. Фразеология в русско-узбекских словарях: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1978. – С. 5-20.

¹⁵ Абдурахимов М. Ўзбекча-русча афоризмлар лугати. – Т.: Фан, 1976. – Б. 126.

¹⁶ Абдурахимов М. Қисқача ўзбекча-русча фразеологик лугат. – Т.: Фан, 1980. – Б. 184.

¹⁷ Содикова М. Ўзбекча-русча афоризмлар лугати. – Т.: Фан, 1993. – Б. 336.

¹⁸ Содикова М. Қисқача ўзбекча-русча мақол-маталлар лугати. – Т.: Фан, 1993. – Б. 88.

namunalari yaratilganini” alohida ta’kidlab o’tgan¹⁹.

O’zbek tilshunosligida nazariy tadqiqotlar natijasida o’quv va ma’rifiy frazeologik lug’atlar yaratish an’anasi rivojlandi. X.Berdiyorov, S.Akobirov, B.Xo’jaxonov, E.Umarov, V.Qodirov, A.Bushuy, Sh.Raxmatullayev, M.Umarxo’jayev, B.Yo’ldoshev, D.Abdullayev va boshqalarning ilmiy hamda amaliy tadqiqotlari shular jumlasidandir. Ammo shuni aytish joizki, o’quv leksikografiyasi sohasidagi ilk tadqiqotlar asosan ikki tilli, ya’ni rus tili asosida yaratilgan o’quv lug’atlari asosida olib borilgan.

“Illyustratsiya” fenomeni va illyustrativ lug’atlarning semiologik aspekti” deb nomlangan birinchi bobning uchinchi faslida “illyustratsiya” fenomening lisoniy xususiyatlarini ifodalashiga alohida e’tibor qaratildi. “Illyustratsiya” termini lotin tilidan olingan bo’lib, “illustration” fotosurat, rasm, jadval, sxema va chizmalarda tasvirlangan u yoki bu obyektlarning tasviridir. Lyudvig Vitgenshteynning fikriga ko’ra, har qanday narsani illyustratsiya sifatida ishlatish mumkin, chunki ‘*faqat belgi yordamida fikrni to’laqonli talqin qilish uchun imkonsiz*’²⁰, ya’ni bir belgi turli xil ma’noga ega bo’lishi mumkin. Illyustratsiya tasviriy san’at va adabiy asarning obrazli talqini bilan bog’liq soha hisoblanadi. U matnga qo’shimcha tarzda uning mazmunini obrazli yoritishga, to’ldirishga, to’liq olib berishga hamda tasvirlashga xizmat qiladi. Illyustratsiya ilk qo’lyozma kitoblar paydo bo’lgan davrlarda yuzaga kelgan bo’lib, dastlab qo’lyozmalar va minatyuralar illyustratsiyalar bilan bezatilgan. Illyustratsiya, shuningdek, ilmiy hodisalar va terminlarning ma’nosini mukammal tarzda yetkazish hamda qisqa va katta ma’lumotlarni vizuallashuviga xizmat qilgan. Illyustratsiya grafikalar va diagrammalar, turli mindmaplar yoki “ma’naviy xarita”, ya’ni g’oyalarni, ma’lumotlarni yoki tushunchalarni vizual tarzda ifodalash uchun ishlatiladigan vosita, birikuylar diagrammasi – ma’lum mavzu bo’yicha fikrlash tarzini tizimlashtirish maqsadini ko’zlovchi xaritalardan iborat. Statistik ma’lumotlarga ko’ra, turli xil lug’atlar tahlil qilinganda, tasvirlar bilan kontentga jalb qilish bir necha baravar yuqori bo’lib, rasmlli matn oson anglanishi aniqlangan. Chunki tasvir obyektning tabiatini va mavzusini darhol baholashga imkon beradi. Bu usul o’quvchini material bilan tanishishdan oldinoq uning tasviri orqali kerakli idrokka moslashtirish imkonini beradi. Masalan, tijorat matnlarida illyustratsiya kitobxonda kuchli his-tuyg’ularni uyg’otadi va quruq izohga nisbatan yaxshiroq ma’no kasb etadi. Demak, illyustratsiya – bu ma’no va mazmunni tasvirlashning murakkabligini kamaytirish hamda tilning tashqi assotsiativ ma’nolarni kuzatishga imkon berish uchun mo’ljallangan lisoniy tizimning obyekt tili bo’lib, boshqa tilni tavsiflash uchun mo’ljallangan. Bundan tashqari, illyustratsiya, imo-ishora bilan to’ldirilgan semiotik tizimdir. Lingvistik semiotikadagi asosiy tushuncha lisoniy belgi bo’lib, u muayyan matnlardagi va muomala vaziyatidagi shakl hamda mazmunning dialektik birligi sifatida namoyon bo’ladi. R.Xartmann va G.Jeyms “illyustratsiya” fenomeniga quyidagicha ta’rif bergenlar, “*bu ma’lum bir leksik birlikning ma’nosini tushuntirishga xizmat qiladigan rasm, diagramma yoki fotosuratdir.. Grafik rasmlarda bitta obyektlar yoki bir-biriga bog’langan predmetlar*

¹⁹ Йулдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. – Самарқанд, 2013. – Б. 102.

²⁰ Витгенштейн Л. Логико-философский трактат. – М., 2022. – С. 60.

*guruhi tasvirlangan bo‘lishi mumkin... ”*²¹. V.D.Tabanakova esa illyustratsiyalarni izohli lug‘atlarda atamani semantizatsiya qilishning leksikografik vositasi sifatida qo‘llash bo‘yicha quyidagi xulosalarni keltirgan: illyustratsiya lug‘atda atamani semantizatsiya qilishning qo‘sishimcha vositasi sifatida ishlatiladi; illyustratsiya obyektiv xarakterga ega bo‘lgan maxsus tushunchalarni semantizatsiya qilish uchun qo‘llaniladi; illyustratsiya og‘zaki va tavsiflovchi tarzda ifodalash qiyin yoki imkonsiz bo‘lgan iboralarni o‘ziga xos xususiyatlarni ochib berishga xizmat qiladi (masalan: shakli, tashqi ko‘rinishi, tuzilishi, joylashuvi); termin semantizatsiyaning leksikografik vositasi sifatida grafik illyustratsiyadan samarali foydalanadi va har bir semantizatsiya qilinadigan tushunchani oldindan mantiqiy konseptual tahlil qilishni talab qiladi²². I.V.Abdurashitovaning fikriga ko‘ra, illyustratsiya – matnning “ko‘zgusi” bo‘lib, o‘quvchi narsalarning muayyan holatini izlab topish vaziyatida bo‘lganida uning qiyofasini aks ettiradi. Tasviriy matnni o‘qiyotganda kitobxon uning talqinidan uzoq bo‘lmasligi kerak²³. Darhaqiqat, bu turdagilug‘atlarda berilgan axborotlar o‘quvchining ongida obyektning yorqin vizual manzarasini shakllantiradi. Biz tadqiqotimizda, asosan, R.Xartmann, G.Jeyms, V.D.Tabanakova frazeologik iboralarning mazmunini ochib beruvchi tasvirlar, ya’ni illyustratsiyalar orqali berish nazariyalariga asoslandik.

“*Frazeologik iboralarning illyustrativ lug‘atini yaratishning leksikografik talqini*” deb nomlangan ikkinchi bobning birinchi faslida frazeologik iboralarni lug‘atlarda izohlashda frazeodidaktikaning o‘rni va ahamiyatini ochib berishga e’tibor qaratdik. Ma’lumki, frazeologik iboralarni illyustratsiyalar orqali izohlash, tasvirlash, sharlash sohaga yangi bir yo‘nalishni, ya’ni frazeodidaktini paydo bo‘lishiga olib kelgan. Frazeografiyaning frazeodidaktikada o‘rganilishi frazeologik iboralarning qo‘llanilishini ilmiy-nazariy jihatlarini o‘rganadigan yo‘nalish hisoblanib, u xorij olimlari tomonidan bir qancha tadqiqotlarda o‘rganilgan bo‘lsa-da, biroq o‘zbek olimlarining biror bir tadqiqotida yaxlit monografik ish sifatida ko‘rib chiqilmagan. Frazeodidaktika terminini ilk bor fanga nemis tilshunosi Piter Kyun (Peter Kuhn) olib kirgan bo‘lsa, Izabel Gonsales Rey (Isabel Gonzalez Rey) esa frazeodidaktika fenomenini o‘rganishni davom ettirib unga quyidagicha izoh beradi, ya’ni “*Frazeodidaktika chet tili o‘rganish jarayonida frazeologik birliklarni o‘rganuvchi fan*”²⁴. Tahliliy izlanishlar jarayonida ma’lum bo‘ldiki, frazeodidaktika alohida fan bo‘lgunga qadar tilshunoslar va metodistlar orasidagi tarqoq shakldagi yo‘nalish sifatida o‘rganilgan. Binobarin, frazeologiyaning asoschisi Sh.Ballining ta’kidlashicha, ona tilimizdan tashqari yana bir chet tilini o‘rgana boshlashimiz bilan birinchi tilda frazeologik birliklarning yig‘ma elementlari mavjudligi ma’lum bo‘ladi²⁵. Olim barcha frazeologik iboralarni o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslikda muhimlik kasb etishi bilan birga ularni noto‘g‘ri talqin qilish esa tilning nozik qirralarini

²¹ Hartmann R.K., James G. Dictionary of Lexicography. – London, 1998. – P. 28.

²² Табанакова В.Д. Идеографическое описание научной терминологии в специальных словарях: Дисс. ... докт. филол. наук. – Тюмень, 2001. – С. 24.

²³ Абдураширова И.В. Феномен иллюстрации и концепт “Реальное” Жака Лакана // Вестник ПНИПУ. Культура. История. Философия. – Право, 2018. – С. 105-113.

²⁴ Gonzalez Rey. La phraseodidactique en action: les expression figées comme objet d’enseignement (elektron manba). <http://cle.Eslyon.fr/espagnol/laphraseodidactique/>.

²⁵ Bally Ch.Traité de stylistique française. Vol. 1-2. – Paris: Klincksieck, 1909.

yeterlicha o'rganmaganligi yoki uni mexanik tarzda o'rganganligini ko'rsatadi²⁶. G.Reyning ta'kidlashicha, frazeodidaktika bilan shug'ullanuvchilari, ya'ni "frazeofil"lar (phraséophiles) va frazeologiyani o'rganish mutlaqo ortiqcha deb hisoblaydigan "frazeofob"lar (phraséophobes) o'rtasidagi fikrlar to'qnashuvi hali ham to'liq va chuqur o'rganilmagan²⁷.

Tadqiqot doirasida frazeofil va frazeofoblarning fikrlarni tahlil qilib, shuni aniqladikki, frazeofoblar frazeologik iboralarni o'rganishda turg'un iboralarni qo'llamasdan ham nutqni to'g'ri qurish mumkin, turg'un iboralari odatda til sohiblariga tegishli, tilda ravon so'zlash uchun o'quvchining ikki tilli bo'lishi shart emas, turg'un iboralar o'zgaruvchan va ularni o'rganish ko'p harakat talab qiladi, ammo har doim ham o'z samarasini bermaydi degan nazariy g'oyani ilgari surishgan.

Biroq frazeologik iboralarni o'rganishning didaktik xususiyatlaridan kelib chiqib, frazeofillar quyidagi jihatlarni muhim hisoblaydilar: tilning turg'un iboralarini o'zlashtira olmaslik, tilni yaxshi bilmasligimizni ko'rsatib berib, mazkur muammoni to'g'ri tushunmaslik natijasida, izohlanayotgan hodisani to'g'ri talqin qilmaslikka olib keladi deb hisoblaydilar. Chet tillarni o'rganuvchilarning til bilish doirasi qanchalik cheklangan bo'lmasin, ular til sohiblari singari frazeologizmlar orqali o'z fikrlarini ifodalash ularning maqsadi bo'lishi zarur, zamonaviy tilshunoslikda, xususan, korpus lingvistikasi tilda mavjud juda ko'p sonli frazeologik iboralarni aniqlashga imkon berdi, shuning uchun ularning bugungi kunda tillarni o'qitishda ahamiyati muhimligi frazeologizmlarni chuqur tadqiq qilishni talab etadi. Shu bois biz frazeofillar fikriga asoslanib, badiiy asarlarning asliyati hamda tarjimasida va hatto chet tilini o'rgatishda og'zaki nutqni rivojlantirishda frazeologik iboralarni qo'llashni o'rgatish zarur, deb hisoblaymiz. Chunki frazeologik iboralar, har bir tilning jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinci bobning ikkinchi fasli "Frazeologik iboralarning ma'no konvensionalligi" masalalarini o'rganishga bag'ishlanadi. Matn maqsadiga mos keluvchi frazeologik birlikni aniqlash, avvalo, ularagi ma'no konvensionalligi bilan bog'liq. "Konvensional" lotincha "conventionalis"²⁸ so'zi bo'lib, shartli ravishda kelishilgan me'yorlarga mos keluvchi degan ma'nolarni bildiradi. Lug'at tuzishda frazeologik iboralarning so'zda hosila ma'noning yuzaga kelishi leksik ma'no denotatining obyektiv borliqdagi narsa, voqelik, harakat, holat va belgi kabilar bilan munosabatiga ko'ra sodir bo'ladi²⁹. G.Paulning ta'kidlashicha, frazeologik iboralar uzial ma'no, okkazional ma'nolarga ajratib o'rganiladi³⁰. Lug'atda frazeologik birlikning uzial ma'nosи, uning invarianti kontekstida ochiladi. Bugungi kunda uzial ma'no "tilning jamiyatda qo'llanadigan umumiy mohiyati" sifatida ta'riflanadi³¹. Idiomatik ma'nolarning konvensionalligi, ya'ni ijtimoiyligi ayrim lug'at tuzuvchilar tomonidan so'z birikmalarini frazeologik birliklar toifasiga kiritishda asosiy

²⁶ O'sha asar, 1909.

²⁷ Ettinger S. Techniques d'apprentissage des expressions idiomatiques // In: G. Dorion, éd.: Le français aujourd'hui: une langue à comprendre (mélanges offerts à Juergen Olbert). – Frankfurt am Main, Diesterweg, 1992. P. 98-109.

²⁸ <https://biznes-prost.ru/konvencionalnyj.html>

²⁹ Реформатский А.А. Введение в языковедение. Изд. 4-ое, испр. – М.: Просвещение, 1967. – С. 75.

³⁰ <https://studfile.net/preview/2379201/page:23/>

³¹ <https://studfile.net/preview/4582528/>

mezonlardan biri sifatida tan olingan³². Shuni aytish kerakki, “idiomatik ma’noning ijtimoiyligi” termini “diskurs ijtimoiyligi” terminidan biroz farqlanadi. Diskurs ijtimoiyligi termini V.I.Karasikovning fikriga ko’ra, “*maqom-o’rin munosabatlari doirasidagi muloqotda institusional diskurs ikkita tizimga soluvchi belgilariga ko’ra ajratiladi, ya’ni muloqot maqsadlari va ishtirokchilari...*”³³”. Idiomatik ma’noning institusionalligi til sohiblari tomonidan idiomaga nisbatan hosil bo’lgan ma’no sifatida qabul qilinadi. Demak, frazeologik ma’noning konvensionalligini sotsiolingvistik, madaniy fenomen sifatida tushunish muhim hisoblanadi.

“*Frazeologik iboralarning badiiy-tasviriy funksiyalarining illyustrativ lug’atlarda ifodalanishi*”i deb nomlangan uchinchi faslda illyustrativ lug’atlarda frazeologik iboralarni badiiy-tasviriy funksiyasini ifodalash masalasiga to’xtalib o’tilgan. Bunday tipdagi lug’atlarda chizmalar va sxemalar kiritilishi lug’at tuzishda inobatga olinadigan yetakchi talablardan biri hisoblanishi zarur. O’rganilgan materiallarga asoslanib didaktik illyustratsiyaning asosiy vazifalari etib quyidagilarni keltirish mumkin:

- 1) illyustratsiya matnni tushuntirish vositasi;
- 2) illyustratsiya ma’noni ifodalashga yordam beradi, so’z bilan ifodalash qiyin bo’lgan narsalarni tasvir orqali vizuallashtirishga imkon beradi;
- 3) illyustratsiya o’quvchiga predmet yoki hodisalarni bildiruvchi noma’lum so’zlarni tushunishga yordam beradi.

Shu bilan birga didaktik illyustratsiya quyidagi muammolarni hal qilishga ham imkon beradi:

- 1) o’quvchilarda vizual va obrazli tafakkurni rivojlantiradi;
- 2) nazariy ma’lumotlarni tushunish va eslab qolishga olib keladi;
- 3) matnning kognitiv va tarbiyaviy funksiyalarini ochib beradi;
- 4) amaliy ko’nikmalarni egallashga yordam beradi.

Illyustrativ lug’atlarda berilgan frazeologik iboralarning mazmunini tushunish va mazkur iboraning o’z hamda ko’chma ma’noda berilganini anglash uchun vizuallashtirilgan tasvirlar va frazeologik iboraning mazmunini ochib tushuntirishda chizma hamda rasmlar muhim o’rin tutadi. Masalan, Pascale Cheminée ning “*Petit guide des expressions*” lug’atida “*mener / se laisser mener par le bout de nez*” (1 rasm) frazeologik iborasi “*faire faire ce que l’on veut à quelqu’un. Se laisser commander par quelqu’un d’autre sans protester*”³⁴ tarzida izohlanadi. SH.Raxmatullayevning “O’zbek tilining frazeologik lug’ati”da mazkur iboraning muqobili mavjud bo’lib u “*burnidan ip o’tkazib olmoq*”, “*o’z izmiga yuradigan itoatkor qilib olmoq*”, “*Kelinimdan o’tdek kuyganman. O’g’ilginamni yaxshi bilasan, quydek yuvvosh bola. Kelinim yashshamagur uni ham rasvo qildi. Bolaginanga ega chiqib, burnidan ip o’tkazib oldi bu dog’uli*” (S.Ahmad). “*Hasrat*”³⁵. Ushbu illyustrativ lug’atda ikki xalq madaniyatida “*burnidan ip o’tkazmoq*” iborasini vizuallashtirishda aynan, erkakning burnidan ip o’tkazgan tasviri ikki xalq madaniyatida yaqin vaziyatlar va yondashuvlar mavjudligini ko’rsatdi. Fransuz tilidagi lug’atga qaraganda o’zbek tilidagi lug’atda


³² Целищев В.В. Философские проблемы семантики возможных миров. – Новосибирск: Наука, 1996. – С. 191.

³³ Карасиков В.И. Дискурсивное проявление личности // <https://cyberleninka.ru/article/n/diskursivnoe>

³⁴ Cheminée Pascale. Petit guide des expressions. – Paris, 2017. – P. 27.

³⁵ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик лугати. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳрир., 1992. – Б. 54.

o‘zbek adiblari asarlardan olingan misollar, frazeologik birliklarning sinonimi va antonimlari ham o‘z aksini topgan. Ikki tilda, ya’ni fransuz va o‘zbek tillarida mazkur frazeologik iboraning badiiy hamda tasviriy funksiyalari bir xil bo‘lganligini kuzatdik va tadqiqot doirasida yaratilgan lug‘atda uni quyidagicha vizuallashtirdik (1-rasm).

Mener / se laisser mener par le bout de nez	Burnidan ip o‘tkazib olmoq
	
1-rasm.	

Bugungi kunda zamonaviy frazeografiyada lug‘at definitsiyalarini qurishga ikki asosiy yondashuv mavjud: *semantik* va *pragmasemantik*. Birinchi yondashuvning xususiyati shundaki, lug‘at mualliflar tomonidan o‘ta qisqa definitsiyalarining berilishidir, uni sharhlanayotgan frazeologik birlikning sinonimi sifatida ko‘rib chiqish mumkin³⁶. Bizning fikrimizcha, frazeologik birlikning sinonimi sifatida didaktik illyustratsiyani ham qo‘llash mumkin. I.V.Dubrovinning “Locutions russes en images”³⁷ lug‘atida keltirilgan: “*Mettre des bâtons dans les roues*” (2-rasm), ya’ni “*g‘ildiraklarga cho ‘p suqmoq*” deb tarjima qilinadi. Lug‘atda mazkur frazeologik ibora quyidagicha sharhlangan: “*Interférer délibérément avec la mise en oeuvre d’une plan, d’une opération*”, ya’ni “*rejası yoki ishini amalga oshirishiga ataylab halaqit bermoq*” deb tarjima qilinadi. Ushbu frazeologik ibora Sh.Raxmatullayevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”dagi “*Oyog‘iga bolta urmoq*” “*mavqeyidan mahrum etadigan zarba yetkazmoq*”. Sinonimi: “*payini qirqmoq*”. “*Hozir biz tanqid olovini Mannonovga sochsak, o‘z oyog‘imizga o‘zimiz bolta urib, progulchilikning tegirmoniga suv quygan bo‘lamiz*”³⁸ variantiga mos keladi. Fransuz madaniyatida g‘ildirakkha cho‘p suqmoq tasviri aynan shu ma’noni ifodalaydi, o‘zbek tilida esa “*g‘ildirak*” leksemasi “*bolta*” leksemasi orqali berilgan. Bu yerda frazeologik iboralar tarkibidagi komponentlar o‘zgargani bilan ular bir xil mazmunni bermoqda.

Mettre des bâtons dans les roues	Oyog‘iga bolta urmoq
	
2-rasm.	

³⁶ Размахнина Н.В. Опыт реконструкции дискурса на основе иллюстративных авторских примеров в английских фразеографических источниках: Дисс. канд. филол. наук. – Иркутск, 2012. – 176 с.

³⁷ Дубровин И.В. Locutions russes en images. – Москва: Русский язык, 1987. – С. 55.

³⁸ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик лугати. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳрир., 1992. – Б. 188.

Frazeografik ma'lumotnomaning asosiy funksiyalaridan biri – frazeologik birliklarning me'yoriy ma'nosи va funksional vazifasini amalgalashdir. Biz qo'llagan didaktik illyustratsiya ushbu frazeologik birlikning o'quvchilarda vizual hamda obrazli tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi va badiiy hamda funksional vazifalari bir-biriga mutanosib hisoblanadi. Bunday didaktik illyustratsiyalar til o'rganadigan o'quvchida vizual va obrazli tafakkurni rivojlantirish, ayniqsa, bolalarga tasvirlash, turli xil illyustratsiyalar orqali xorijiy til o'rgatishda bu ijobjiy samara beradi. Mazkur illyustratsiya yordamida biz o'quvchilarda analitik ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishimiz va ushbu surat hamda unga berilgan qisqa ta'riflar asosida bat afsil bayonot tuzish qobiliyatini rivojlantirishimiz mumkin.

Shuningdek, Pascal Sheminening lug'atida “*Avancer comme un escargot / une tortue*” iborasiga “avancer très très lentement”, ya’ni “imillab, juda sekin yurmoq”, “chig’anoq yurish, toshbaqa yurish” deb izoh keltirilgan³⁹. Sh.Raxmatullayevning “O’zbek tilining frazeologik lug’ati⁴⁰”da esa mazkur fransuz tilidagi iboraning o’zbek tilidagi anologi mavjud bo’lib, “*Toshbaqa qadam bilan*” va “*toshbaqa yurish bilan*” *imillab juda sekin yurmoq* deb sharhlangan. “*Ha buning joyida. Lekin toshbaqa qadam bilan ikki soatlik yo’lga rosa bir kun sudralsa kerak-da*” (H.Nazir. So’nmas chaqmoqlar)⁴¹. Mazkur iboralarda ham yuqoridagi misol singari asosiy komponent zoonimlar orqali berilgan va fransuz tilida chig’anoq hamda toshbaqa leksemalari yordamida sekin harakat qiladigan insonlarga ishora qilingan.

Tadqiqotning uchinchi bobи “*Fransuz va o’zbek tillarida frazeologik iboralarning illyustrativ lug’atini tuzishning zamonaviy tamoyillari*”ni o’rganishga bag’ishlanadi. Mazkur bobning birinchi paragrafida jahon lug’atshunosligida illyustrativ lug’at tuzish tajribasi xususidagi nuqtayi nazarlar bayon etiladi. Agar leksikografiya tarixiga nazar tashlasak, lug’atshunoslar til o’rganuvchilarni lug’atlardan foydalanish turiga qiziqishlarini orttirish maqsadida lug’at sarlavhasiga “*illustrated*” terminini kiritishni boshladilar va XX asrda Oksford nashriyoti “*Oxford English Dictionary*” ga asoslangan “*Oxford Illustrated Dictionary*” (1962) ni nashr etdi. Yevropa, Rossiya va Amerika leksikografiyasida lug’at maqolasida illyustratsiya funksiyasi hamda undan foydalanishning asoslilik masalasi turli bahs va munozaralar tug’dirmoqda. S.Landauning fikriga ko’ra, oddiy so’zlar qo’shimcha grafik tasvirlashga muhtoj emas, balki aniq ta’riflarga muhtojdir⁴². O.A.Germanova ta’kidlaganidek, illyustratsiyalar til belgisi bilan emas, balki so’z bilan shug’ullanadi⁴³. Haqiqatdan ham illyustratsiyalar ko’pincha ensiklopedik lug’atlarda qo’llaniladi, biroq grafik rasmlarni maxsus rasmlarga kiritishning asosliligi masalasi hali ham aktual hisoblanadi. S.Landau esa “The Art and Craft of Lexicography” asarida shunday yozadi: “*maxsus lug’atda rasmning foydalilik darajasi foydalanuvchining til bilish darajasiga, tanlangan tilga, shuningdek, lug’atning ma'lumotlariga va lug’at qanchalik oddiy hamda ta’limiy bo’lsa, unda illyustratsiyalar mayjudligi yanada foydali bo’ladi*”⁴⁴. Olimning fikriga

³⁹ Cheminée P. Petit guides des expressions. – Paris, 2017. – P. 41.

⁴⁰ Paxmatullaev Ш. Ўзбек тилининг фразеологик лугати. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳрир., 1992. – Б. 266.

⁴¹ O’sha asar. – B.134.

⁴² Landau S.I. The art and craft of lexicography. – N.Y., 1996.

⁴³ Rey-Debove J. Etude linguistique et semiotique des dictionnaires français contemporains. – Mouton, 1971.

⁴⁴ O’sha asar, 1996.

qo'shilgan holda aytish mumkinki, lug'atlarda suratlardan foydalanish o'quvchini tezroq ma'lumotni anglab olish va u to'g'risida vizual taassurotga ega bo'lish, berilgan so'zning mazmun mohiyatini oson tushunib yetishiga olib keladi.


Xorij olimlari tomonidan illyustratsiya lug'atlarini tizimlashtirishga va mazkur tipdagi lug'atlarni yaratish borasida turli tamoyillar ishlab chiqilgan. Bu borada, V.Xupka fransuz, italyan, ispan, ingliz va nemis tillari lug'atlarini tahlil qilib, ushbu lug'atlarda qo'llanilgan illyustratsiyalar bo'yicha o'z tasnifini taklif qilgan: oddiy grafik rasmlar (*unikale illustration*) – bitta izoh bilan amaliy obyektlardan olingan rasmlar to'g'ridan-to'g'ri kirish birligining qiymatini tasvirlangan obyektning o'xshash tushunchalari va funksiyalari bilan bog'lanmasdan tushuntiradi; *enumerating illustration* (biror narsaning miqdorini tasvirlash / biror narsani ro'yxatlash uchun mo'ljallangan rasm); funksional illyustratsiya (*functional illustration*) (predmet xususiyatlarining vazifaviy tasviri); ensiklopedik illyustratsiya (*encyclopedic illustration*) (ensiklopedik xarakterdagi rasm).

Biz tadqiqotimiz doirasida o'rgangan nazariyalarimizga asoslanib, "Fransuzcha-o'zbekcha frazeologik iboralarning illyustrativ lug'at⁴⁵"ni tuzdik. Bunda, asosan, lug'atshunos olim V.Xupkaning lug'at tuzish tamoyillaridan biri, ya'ni funksional illyustratsiyasiga ko'ra fransuzcha va o'zbekcha frazeologik iboralarning vazifaviy tasvirini ishlab chiqdik. Bizningcha, illyustratsiya til belgisi emas so'z ma'nosi bilan bog'liq, u lug'atda terminni semantizatsiya qilishning qo'shimcha vositasi bo'lib, u tavsiflovchi tarzda ifodalash qiyin yoki imkonsiz bo'lgan belgilarni o'ziga hos hususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Vizual ta'rifga ko'ra, illyustratsiya bu tasvirni vizual tushuntirish yoki tasvirlash, bir necha so'zlar o'rniga bitta tasvirdan foydalanishdir.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli "*Fransuzcha-o'zbekcha frazeologik iboralarning illyustrativ lug'atini tuzish tamoyillari*" tavsifini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, lug'atlarda frazeologik iboralar, maqol va matallar, idiomalarni kiritish, frazeologik birliklarning semantik va grammatik xususiyatlarini o'rganish masalasi bilan frazeografiya sohasi shug'ullanadi. Sh.S.Imyaminovaning fikriga ko'ra, "*frazeografiya sohasida bir, ikki va ko'p tilli frazeologik lug'atlar tuzishning bir qancha muammolari mavjud bo'lib, ayniqsa, ma'lum bir tildagi frazeologizmni ikkinchi tilga berilishida ekvivalent tanlash asosiy masala hisoblanadi*"⁴⁶. Olma frazeologik birlik so'zma-so'z tarjima qilinganida, uning frazeologizmlik ma'nosi yo'qolishi sababli, uni so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi, chunki undagi har bir element bitta birikma sifatida qaraladi degan fikrni olg'a suradi. Shu bilan birga, frazeologizmlar tarjimasida bir tildagi frazeologik birlik ikkinchi tilda aynan mos frazeologik ekvivalent bo'lmagan taqdirda sinonim so'zlar yordamida ham tarjima qilinishi mumkin, shunda ma'no saqlanadi deya ta'kidlaydi.

⁴⁵ Inogamova F. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi huzuridagi "Intelektual mulk markazi" mualliflik mulk obyektlarini deponentlash to'g'risidagi guvohnomasi. – T., 2024. 18-yanvar.

⁴⁶ Иммакинова III. Фразеография соҳасига оид назариялар ва соҳадаги долзарб муаммолар // <https://sciencebox.uz/index.php/jars/article/download/7251/6675/7450>



Tadqiqot doirasida fransuz tilidagi frazeologik birliklarning o‘zbek tilidagi ekvivalentlarini va anologlarni topishga harakat qildik. Masalan, fransuz tilidagi “*Une faim de loup*”⁴⁷ (3 rasm) frazeologik iborasi “*avoir un très affamé*” deb izohlanib, “*Bo’ridek och bo’lmoq*”, ya’ni “*juda och qolmoq*” ma’nosini bildiradi.

Bilishimizcha, insoniyatning ongida bo‘ri juda ochlik hissi bilan yashaydigan hayvon deya talqin qilinadi. XVII asrda fransuzlar ko‘p ovqat iste’mol qilgan odamga nisbatan “*bo’ri kabi ovqatlanadi*” deyishgan. “*Mangé comme un loup*”, ya’ni “*bo’ridek ovqatlanmoq*” degani, juda kuchli ochlik hissini yengish uchun, odam qo‘liga tushgan narsani yutishi mumkin degan ma’noni anglatadi. Mazkur frazeologik ibora fransuz tilidagi aksariyat illyustrativ lug‘atlarda, shuningdek, *Le Petit Larousse illustré*⁴⁸ lug‘atida ham bo‘rini bo‘sh idish ustida qoshiq va sanchqi ushlab turgan bo‘rining g‘azabli tasviri orqali vizuallashtirilgan. O‘zbek tilida ham mazkur ibora *bo’ri* leksemasi bilan yasalishini inobatga olib yaratilgan lug‘atda ikki tildagi tasvir bir xil vizuallashtirildi. Chunki fransuz va o‘zbek tillarida ikkala ibora tarkibida “*bo’ri*” leksemasi borligi hamda mazmun jihatdan fransuz tilida ham och qolgan inson bo‘ridek och deb konnotatsiya qilinishini inobatga oldik.

“*Avoir le melon*”⁴⁹ frazeologik iborasi Larousse illustré lug‘atida “*être prétentieux*”, “*imbu de soi-même*”, “*avoir la grosse tête*” tarzida izohlangan bo‘lib fransuz tiliga tarjima qilinganda, dimog‘dorlik ma’nolarini anglatadi: “*Avoir le melon*” frazeologik iborasining so‘zma so‘z tarjimasini “qovunli”, “qovunga ega bo‘lmoq” tarzida tarjima qilinadi bildiradi. “*Le melon*” so‘zini eshitib yoki fransuz tilidagi illyustrativ izohda “*qovun boshli*” kishining tasvirini ko‘rib, o‘zbek o‘quvchilari tafakkurida “*qovun tushirmoq*” frazeologik iborasi paydo bo‘lishi mumkin va parallel ravishda mazkur iboraning tasviri to‘g‘risida dissonans⁵⁰ holati (bu iboraning mazmunidan qoniqmaslik) kelib chiqishi mumkin. Mazkur frazeologik ibora Sh.Raxmatullayevning “*O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati*”da mavjud emas, ammo u o‘zbek xalq og‘zaki nutqida ko‘p qo‘llaniladi. “*Qovun*” so‘zi bilan bog‘liq tasvir va tasavvur o‘zbek tilida fransuz tilidagi mazmuniga mos muqobiliga nisbatan farq qilishi yaqqol namoyon bo‘lgan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Sh.Raxmatullayevning “*O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati*⁵¹”da “*Dimog‘i ko‘tarilgan*”, “*Burni ko‘tarilgan*⁵²”. M.Abduraximovning “*Qisqacha o‘zbekcha-ruscha frazeologik iboralar lug‘ati*”da “*g‘ozdek kerilmoq*”, “*g‘oz yurish yurish*” kabi

⁴⁷ Le Petit Larousse illustré. – Paris: Larousse, 2003. – 1818 p.

⁴⁸ O’sha asar. – 1818 p.

⁴⁹ Le Petit Larousse illustré. – Paris: Larousse, 2003. – P. 1098.

⁵⁰ Ширинова Р. Олам миллий манзарасининг бадиий таржимада қайта яратилиши: Филол. фан. докт. (DSc) дисс. ... автореф. – Тошкент, 2017. – Б. 128.

⁵¹ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик лугати. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳрир., 1992. – Б. 188.

⁵² Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 407.

frazeologik iboralari mavjud⁵³. Demak, “avoir le melon” frazeologik iborasi uchun yuqorida ta’kidlangan lug‘at namunalari kabi dimog‘dor shaxs tasviri kerak bo‘ladi. Kibrga berilgan inson tasvirini berishda “g‘ozdek kerilmoq” va “g‘oz yurish” variantiga to‘xtalib ikkita illyustratsiya “g‘oz” hamda “burun” leksemalariga asoslangan obrazga ega tasvir yaratildi.

Leksikografik ma’lumotlarga tayangan holda biz, quyida fransuzcha-o‘zbekcha frazeologik iboralarning illyustrativ lug‘atini tuzish tamoyillarini ishlab chiqdik: 1) aniq va muvofiq tarjima berish; 2) kontekstual illyustratsiyalar qo‘shish; 3) madaniy va tarixiy tushuntirishlarni kiritish; 4) qo‘llanish doirasini ko‘rsatish (masalan, ayrim iboralar faqat adabiy yoki rasmiy tilda qo‘llansa, boshqalari kundalik, og‘zaki nutqda uchrashi mumkin. Lug‘atda iboralarning qaysi holatlarda va qaysi uslubda ishlatilishi haqida ma’lumot berish muhim; 5) grammatik va stilistik xususiyatlarni aniqlash (ayrim iboralar ma’lum bir grammatik shaklda yoki muayyan boshqa so‘zlar bilan ishlatilishi mumkin. Shuningdek, ularning stilistik jihatdan qaysi hollarda qo‘llash maqsadga muvofiqligi haqida ma’lumot berish lozim; 6) izchillik va yaxlitlik (lug‘atning har ikki tilda bir xil tartibda va izchil tarzda tuzilishi talab etiladi); 7) tillararo o‘xhashlik va farqlar (fransuz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi semantik jihatdan o‘xhashlik hamda farqlarni ko‘rsatish muhimdir. Fransuz tilidagi frazeologik birliklarning ma’noviy tasviri o‘zbek madaniyatiga mos kelmaganda iboraning o‘zbek tilidagi izohi qoldirildi; 8) frazeologik iboralarning tarkibiy tuzilishi (frazeologizmlarning komponentlari, ularning o‘zaro bog‘lanishi va mazmunan bir-biriga bog‘lanishi kabi jihatlar ko‘rsatilishi kerak. Bu har bir tilda iboralarning o‘ziga xos strukturasini tushunishga yordam beradi).

Tadqiqotning “Fransuzcha-o‘zbekcha frazeologik iboralarning illyustrativ lug‘atini parallel korpusga kiritish istiqbollari” deb nomlanuvchi uchinchi bobning uchinchi fasli korpus tushunchasining frazeografiya sohasidagi tadqiqiga bag‘ishlanadi. Frazeografiya sohasidagi korpus yondashuvining o‘zi nafaqat frazeologik iboralarning qo‘llanishini, balki korpus materialidan foydalangan holda frazemalarning semantik, sintaktik va pragmatik xususiyatlarini o‘rganishni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, frazeologik iboralarning semantikasi va tarjimasi haqida olingan yangi ma’lumotlarni umumlashtiradi.

O‘zbek tilshunosligida ham bu borada tadqiqotlar va amaliy ishlar olib borilgan. Rustam Karimov o‘zbek ingliz parallel korpusini tuzishning lingvistik va dasturiy masalalari ustida tadqiqot olib borar ekan, u “parallel korpuslar funksionalligining obyektivligi va adekvat mohiyatini ta’minlashda asliyatdan tarjima tiliga bevosita o‘girilgan matnlarni janrlarga muvofiq tanlash strategiyasi hamda matn elementlarini parallel teglashda tarjima transformatsiyalari chegaralarini belgilash ustuvorlik kasb qilishini, parallel korpuslar va boshqa turdagи korpuslar matn tanlash, uni elektron shaklga kiritish, matnga metatavsif berish, qidiruv tizimi modulini yaratish, matnni korpusga yuklash kabilarni asoslab bergen”⁵⁴. N.Abduraxmonova inglizcha matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta’minotini o‘rganar ekan, “ikki

⁵³ Абдурахимов М. Қисқача ўзбекча-русча фразеологик ибораларнинг лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 65.

⁵⁴ Каримов Р.А. Ўзбек инглиз параллел корпузини тузишнинг лингвистик ва дастурий масалалари. Филол. фан. бўйича фалсафа. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – Б. 8.

tilining morfologik va sintaktik modellari, ingliz va o‘zbek tillariga oid affikslar, morfologik lug‘at, fe’lli frazemalarning lingvistik ta’minotini yaratgan va o‘zbek tili korpusiga asos solgan”⁵⁵. Mazkur tadqiqotda matnlarni avtomatik tarjima qilishda inglizcha sodda modellarning o‘zaro muvofiqligini aniqlab, mashina tarjimasi uchun matnlarning morfologik, sintaktik-semantik tahlil qilish tamoyillarini ishlab chiqqan”. Sh.Musurmonkulova o‘zbek va turk tilidagi frazemalarning lingvistik ta’minoti ustida tadqiqot olib borar ekan, “o‘zbek va turk tillaridagi frazemalar struktur-semantik jihatdan ohib berib, paralel frazemalarning morfologik va sintaktik modellashtirgan”⁵⁶. Shuningdek, ularning tarkibiy xususiyatlariga ko‘ra teglangan lingvistik ta’minotini yaratgan. Biz jahon olimlarining korpus lingvistikasi yaratish tamoyillariga asoslanib, fransuzcha-o‘zbekcha frazeologik birliklarning illyustrativ lug‘atini ikki tildagi iboralarning ijtimoiy-tarixiy va madaniy jihatlarini e’tiborga olgan holda tuzishda quyidagi algoritmga asoslanishni taklif etamiz: shakl, mazmun va bosh komponentlarning muvofiqligi; shakl va mazmun muvofiq biroq bosh komponent farqlanuvchi; shaklan farqlanuvchi va mazmunan muvofiq; shakl va mazmun jihatdan farqlanuvchi.

Mazkur algoritimni amalga oshirish uchun ikki tilli frazeologik iboralarning illyustrativ lug‘atini tuzish metodikasini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish zarur: 1) fransuz va o‘zbek tillari materiali asosida frazeografik tadqiqotlar uchun eng mos elektron matn korpusini aniqlash; 2) fransuz tilidagi umumiyligi frazeologik iboralar ro‘yxatini tanlash va ularning o‘zbek tilidagi muqobili hamda analogi bilan paralellashtirish va ularni korpus tahliliga tortish; 3) frazeologik birliklar ma’lumotlarining o‘zgarishi hollarini aniqlash; 4) ko‘rib chiqilayotgan frazeologizmlarning semantikasi, valentligi va tarjimasi haqida qanday yangi ma’lumotlarni korpusdan o‘rin egallashi mumkinligini tahlil qilish; 5) parallel korpusning ligvodicaktika, frazeodicaktika, lingvokulturologiya, lingvistik va tarjima sohasidagi afzalliklarini ko‘rsatib berish; 6) fransuz-o‘zbek va o‘zbek-fransuz parallel korpusi uchun to‘plangan materiallarni lingvistik hamda ekstralingvistik teglash yo‘llarini belgilash zarur.

XULOSA

1. Illyustratsiya bu ma’no va mazmunni tasvirlashning murakkabligini kamaytirish hamda so‘z orqali ifodalash qiyin yoki imkonsiz bo‘lgan belgilarni o‘ziga xos xususiyatlarini ohib berishga xizmat qiladigan yoritish va ko‘rgazmali tasvirlash vositasi bo‘lib, u matnga qo‘shimcha tarzda uning mazmunini obrazli yoritishga hamda to‘ldirishga xizmat qiladi. Illustratsiya mazmunni obrazli yoritish, fikrni tasavvur qilishga yordam beradigan tasvirlar, ya’ni fotosuratlar, chizmalar, grafik belgilar, diagrammalar hamda xaritalarni o‘zida aks ettiradi.

2. Illyustrativ lug‘atlarning semiotik jihatlari vizual vositalarning tushunchani semantizatsiya qilishda qo‘shimcha element sifatida qo‘llanilishi bilan bog‘liq, ya’ni

⁵⁵ Абдурахмонова Н.З. Инглизча матнларни ўзбек тилига таржима қилиш дастурининг лингвистик таъминоти (Сода гаплар мисолида): Филол. фан. бўйича фал. доктори (PhD) дис. автореф. – Тошкент, 2018. – 52 б.

⁵⁶ Musurmankulova Sh.G. O‘zbekcha va turkcha frazemalar korpusining lingvistik ta’minoti: Filol. fan. bo‘yicha falsafa. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – B.10.

aniq vizual obyekt sifatida og‘zaki ifodalash qiyin yoki mumkin bo‘lmagan iboralarning o‘ziga xosligini ochib berishga imkon beradi. Bu rasmlar grafiklar, diagrammalar, turli xil mental xaritalarni o‘z ichiga oladi.

3. Mavjud ikki tilli frazeologik iboralarning qiyosiy tahlili lingvomadaniy tafovutlar bilan bog‘liq bir qator jihatlarni aniqlashga imkon beradi, xususan: a) frazeologik iboralar o‘zida milliy-madaniy xususiyatlar va an’analarni o‘zida aks ettirishini ko‘rsatadi; b) bir qator frazeologik iboralar til tuzilishidagi farqlar tufayli adekvat tarjima qilish mushkul ekanligi sababli ular tarjimasida kontekstual yondashuv muhim hisoblanadi.

4. Ma’no konvensionalligi sotsiolingvistik xususiyatga ega bo‘lib, frazeologik birliklarning ijtimoiy-madaniy tajribalar majmui asosida shakllanganligini bildiradi. Uzual, illokutiv va perlokutiv ma’nolar frazeologizmlar konvensionalligida yondosh tushunchalar hisoblanib, iboralarning stilistik mazmuni hamda tarixiy asosini ifodalashga xizmat qiladi.

5. Frazeologik iboralarning ikki tilli tasviriy lug‘atlarini qiyosiy tahlil qilish quyidagi asosiy tamoyillarni hisobga olish zaruratini keltirib chiqardi: a) tarjimaning aniqligini va muvofiqligini ta’minlash, bunga har ikki tildagi frazeologik iboralarni sinchkovlik bilan tahlil qilish orqali erishiladi; b) har bir iborani uning ma’nosini tushunishga yordam beradigan tasviriy vosita bilan birga keltirish lozim bo‘ladi. Bu frazeologik iboralarning ma’nosini to‘liq ochib berishga xizmat qiladi.

6. Ikki tilli tarjima lug‘atlari va frazeologik iboralarning izohli lug‘atlarining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

a) asliyatdagi va tarjima tilidagi frazeologik iboralarni to‘g‘ri hamda aniq tushunishga yordam beradi;

b) ko‘rgazmali misollar muhim kontekstual material sifatida xizmat qiladi, muayyan iboraning qanday va qaysi vaziyatlarda qo‘llanilishini ko‘rsatib beradi, bu esa tilni yanada chuqurroq o‘rganishga imkoniyat yaratadi;

d) madaniy-kontekstual funksiya – tarjima qilinayotgan tildagi xalqning dunyoqarashi va madaniyati to‘g‘risida ma’lumot beradi;

e) badiiy-tasviriy vazifa – so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydigan matnni obrazli yoritish, fikrni tasavvur qilishga imkon beradi;

f) ta’lim vazifasi – til kompetensiyasining turli darajalarida yangi ma’lumotlarni yetkazib beradi.

7. Frazeologik iboralarning illyustrativ lug‘ati yaratishda shakl, mazmun va bosh komponentlarning muvofiqligi, shakl va mazmun muvofiq biroq bosh komponent farqlanuvchi, shaklan farqlanuvchi va mazmunan muvofiq, shakl va mazmun jihatdan farqlanuvchi algoritimga asoslanish lug‘at yaratishning samarador usuli sanaladi.

8. O‘rganilgan leksikografik manbalar asosida frazeologik iboralarning illyustrativ lug‘atini tuzishning quyidagi tamoyillari tavsiya etiladi: a) aniq va muvofiq tarjima berish; b) kontekstual illyustratsiyalar qo‘sish; d) madaniy va tarixiy tushuntirishlarni kiritish; qo‘llanish doirasini ko‘rsatish; e) grammatik va stilistik xususiyatlarni aniqlash izchillik hamda yaxlitlik; f) tillararo o‘xshashlik va farqlarni berishda iboraning muqobili hamda izohini berish; g) frazeologik iboralarning tarkibiy tuzilishini, komponentlari orasidagi munosabatlarni ko‘rsatish.

9. Ikki tilli illyustrativ frazeologik iboralarning parallel korpusini yaratishning quyidagi metodikasi tavsiya etiladi: a) fransuz va o‘zbek tillari materiali asosida frazeografik tadqiqotlar uchun eng mos elektron matn korpusini aniqlash; b) fransuz tilidagi umumiy frazeologik iboralar ro‘yxatini tanlash va ularning o‘zbek tilidagi muqobili hamda analogi bilan paralellashtirish va ularni korpus tahliliga tortish; d) frazeologik birliklar ma’lumotlarining o‘zgarishi hollarini aniqlash; e) ko‘rib chiqilayotgan idiomalarning semantikasi, valentligi va tarjimasi haqida qanday yangi ma’lumotlarni korpusdan o‘rin egallashi mumkinligini tahlil qilish; f) parallel korpusning ligvovididaktika, frazeodidaktika, lingvokulturologiya, lingvistika va tarjima sohasidagi afzalliklarini ko‘rsatib berish; fransuz-o‘zbek va o‘zbek-fransuz parallel korpusi uchun to‘plangan materiallarni lingvistik hamda ekstralengvistik teglash yo‘llarini belgilash zarur.

10. O‘zbekcha-fransuzcha frazeologik iboralarning illyustrativ lug‘ati asosida kelajakda badiiy asarlarning asliyati va tarjimasida faol qo‘llanilayotgan frazeologik birliklarning qo‘llanilish chastotasini aniqlash, o‘zbek tilidagi illyustrativ frazeologizmlarni tarjima muammolarini o‘rganish va ularga yechim topish istiqlooldagi vazifalardan biridir.

**УЧЕНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ
DSc03/30.12.2019.Fil.01.10 ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА
НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА**

ИНОГАМОВА ФАЗИЛАТ МАНСУРОВНА

**ПРИНЦИПЫ СОЗДАНИЯ ИЛЛЮСТРАТИВНОГО СЛОВАРЯ
ФРАНЦУЗСКО-УЗБЕКСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ВЫРАЖЕНИЙ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное
языкознание и переводоведение (филологические науки)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2021.2.PhD/Fil1848

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме) размещён на веб-странице Научного совета (www.nuu.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Ширинова Раима Хакимовна,
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Джумабаева Жамиля Шариповна
доктор филологических наук, профессор

Маматкасимова Васила Акрамджановна
кандидат филологических наук, доцент

Ведущая организация:

**Узбекский государственный
университет мировых языков**

Защита диссертации состоится «9» июня в 10:00 часов на заседании Научного совета 03/30.12.2019.Phil.01.10 по присуждению ученых степеней при Национальном университете Узбекистана. Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Фараби, дом 400. Тел.: (+99871) 246-08-62, факс: (+99871) 246-65-24. e-mail: nauka@nuu.uz. Национальный университет Узбекистана, факультет Зарубежной филологии (3-й этаж, 3-11 ауд.).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за №88. Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, д. 4. Тел.: (99871) 246-02-24.

Автореферат диссертации разослан «27» июн 2025 года.
(Протокол реестра рассылки за №23 от «27» июн 2025 года)



И.А.Сиддикова

Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
докт. филол. наук, профессор

М.Г.Рабиева

Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
докт. философии (PhD) по филол. наукам,
доцент

С.Э.Камилова

Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, докт. филол. наук,
профессор

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы исследования. В мировой лексикографии в последние годы приобретает особую значимость изучение фразеографии как отдельной науки, а также решение инновационных задач, связанных с теоретическими аспектами и законами фразеодидактики. В частности, становится актуальным выявление общих закономерностей иллюстративной фразеографии, изучение её исторического формирования и развития, анализ типологической классификации словарей нового поколения, обобщение основных принципов в данной области и их раскрытие в сравнительно-типологическом аспекте. В мировой лексикографии проводится ряд исследований, посвящённых детальному изучению лексико-семантических и функционально-семантических особенностей терминологических систем разных языков, классификации в направлении лексикографии и исследованию их лингвистических характеристик в лингвокультурологическом аспекте.

С этой точки зрения узбекская лексикография и фразеография требуют дальнейшего совершенствования исследований в указанном направлении, выработки предложений по изучению фразеологии на пересечении всех её областей, а также проведения исследований, направленных на разработку современных принципов создания иллюстративных словарей, двух- и многоязычных визуальных и электронных словарей. В последние годы в нашей стране растет потребность в высококвалифицированных кадрах, обладающих глубокими знаниями иностранных языков и обладающие навыками создания как разнообразных словарей, современных электронных словарей так и систем корпуса узбекского языка, отвечающих требованиям времени. Это, в свою очередь, обуславливает необходимость «обеспечения конкурентоспособности Узбекистана в таких областях, как наука, интеллектуальный потенциал, современная кадровая подготовка и высокие технологии на мировом уровне»¹. С этой точки зрения изучение научных и теоретических вопросов лексикографических проблем фразеологических выражений, анализ принципов, разработанных зарубежными фразеографами, а также создание на их основе иллюстративных французско-узбекских словарей фразеологических выражений подчеркивает актуальность данного исследования.

В рамках настоящего исследования акцент сделан на выполнение задач, определенных указами Президента Республики Узбекистан: № ПФ-5487 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», № ПФ-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» и № ПФ-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», а также иных нормативно-правовых актов,

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимини қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 12 б.

регулирующих соответствующую сферу. Данное исследование вносит определённый вклад в реализацию поставленных задач.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики Узбекистан: 1. «Формирование системы инновационных идей по социальному, правовому, экономическому, культурному и духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства, а также пути их реализации» в рамках приоритетных направлений.

Степень изученности проблемы. Вопросы этимологии, формирования, лексико-грамматических и семантических трансформаций фразеологических единиц, а также их национальных и специфических особенностей в сравнении на материале двух и более языков различных систем широко изучались зарубежными и узбекскими исследователями².

В области фразеографии узбекские лексикографы в 50-90-х годах XX века занимались теоретическими и практическими вопросами составления словарей фразеологизмов³. Особенno выделяются работы Ш. Раҳматуллаева,

